O’ZBEKISTONA ERKAK VA AYOL HUQUQLARI TENGLIGI MASALASI. TARIX VA BUGUN MISOLIDA

Tilovov Suhrob To’lqin o’g’li
Jizzax davlat pedagogika instituti Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi IV bosqich talabasi.

Annatatsiya. Tarixdan to hozirgi kungacha erkak va ayol huquqlari, majburiyatlari masalasida turli qarashlar mavjud. Zamonaviy jamiyatda bu masalaga qarash tubdan o’zgarmoqda. O’zbekistonda ham bu boradagi masala va ishlar Konstitutsiya va qonunchilik bilan mustahkam belgilangan va amaliy ishlar tizimli tashkil qilinmoqda.

Kalit so’z: *Gender tenglik, Tarixda erkak va ayol huquqi masalasi, O’zbekistonda gender masalasi, Jamiyat boshqaruvida ayollarni o’rni, Qonunchilikda gender tenglikni mustahkamlanishi.*

Erkak va ayol teng huquqligi va ularninig majburiyatlari haqida turli manbalarda qayd etilishicha, bu to’g’risida bir- birini takrorlamaydigan dalil va misollarga duch kelamiz. Qadimgi Sharq mamlkatlarida, xususan O’rta Osiyoning qadimgi Sug’d, Eftalliylar, Turk xoqonligi, SHosh va boshqa davlatchiliklariga ega bo’lgan xalqlarida ayol va erkak huquqlari teng bo’lganligi, ayollarning haq-huquqlari erkaklar huquqlaridan kam bo’lmaganligi guvohi bo’lishimiz mumkin. Misol uchun Shosh va Eftalliylar davlati hukumdorlari o’zlari zarb ettirgan tangalarida hukmdor bilan birga ayol kishi(malika)ning ham tasviri tushirilganligi yorqin ko’rinishi bo’lsa, Sug’d xalqlarida shunday bir udum bo’lganki, uylanmoqchi bo’lgan yigit qizning sinovidan o’tish kerk bo’lgan. Sinov bu turli ko’rinisda (kurash, o’tin yorish va h.k) tarzida o’tkazilgan. Qizning shartlarini bajargan yigit unga uylanishg muyassar bo’lgan, aks holda qizga xizmatkor bo’lishiga to’g’ri kelgan. Bu ham qaysidir ma’noda qizlarning o’z erkinligi o’z qo’lida ekanligidan darak beradi. O’z davrining katta davlatchiligiga asos solgan Turk xoqonligi davrida ham yigit va qizlarning huquqlari teng sanalgan, hatto bu meros masalasida ham o’z ifodasini topgan edi.

Islom dini mintaqamiz hududida yoyilgach islomiy odob-axloq va shariy qonun qoidalar o’rnatildi. Bu o’z navbatida erkak va ayolning huquq va majburiyat tushunchalariga o’z tasirini o’tkazmasdan qolmasdi. Islom dining mohiyatini to’liq anglab yetmaganlar orasida go’yo ayol kishi islom dinida erkak kishidan bir pog’ona past yurishini ta’kidlashgan. Aytishishimiz mumkinki, islom dinida

ayolning erkak kishiga itoatkor bo'lishi ta'kidlangan deyishadi. Xo'sh bu itoatkorlik qanday ko'rinishda bo'lganligiga Payg'anbarimiz Muhammad s.a.v. ning o'zlari o'z turmush o'rtog'iga bo'lgan munosbatidan tortib, hazirat Ali va Hadicha ayamizning umr yo'llaridagi er-xotinlik munosabatini o'rganish kifoya.

Islom dini johiliya davrini tugatishga sabab bo'ldi, ayollarning huquqlarini yana bir pog'ona ko'tarilishiga olib ketdi. Bu ko'rinish majburiy qonunlar ko'rinishida bo'lmay ba'lki, barcha uchun oson va tushunarli bo'lgan odob-axloq ko'rinishda, hurmat va izzaat namunalari misolida amalga oshirilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Bugunchi?

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy, kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qatiy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'llaniladi hamda ijtimoiy adolat prinsplariga mos bolishi shart.[1]

O`zbekistonda mustaqillik yillarida gender tenglikka erishish choralarini ro`yobga chiqarish yo`lida juda katta ishlar amalga oshirildi. Oilaning ijtimoiy muhofazasi, onalik va bolalik masalalariga mas'ul bo`lgan Bosh vazir o`rinbosari rahbarligida 1991 yilda Xotin-qizlar qo`mitasiga asos solinganligi bilan institutsional rivojlanishda sezilarli o`sishga erishildi. Xotin-qizlar qo`mitasi barcha hududlarda va jabhalarda vakolatli bo`lgan takomillashgan tizimga ega. Qo`mita raislari orasida viloyat darajasidagi 14 ta hokim o`rinbosarlari, shuningdek, munitsipal va tuman darajasidagi ma`muriyat rahbarlarining 219 ta o`rinbosarlari faoliyat ko`rsatishadi. Xotin-qizlar qo`mitasi, hamda Tashqi ishlar vazirligi va Inson huquqlari bo`yicha milliy markaz Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to`g`risidagi Konvensiya, Pekin harakati dasturining bajarilishi, Mingyillik rivojlanish maqsadlari bilan yuklatilgan xalqaro majburiyatlar bo`yicha hisobotlarda Davlat statistika qo`mitasi bilan uzviy hamkorlikda ish olib boradi. Xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash va ularning iqtisodiy huquqlarini mustahkamlash yuzasidan milliy darajada dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat boshqaruvi organlari, respublikaning jamoat va ilmiy tashkilotlarining gender masalalarini hal qilishdagi faoliyatini jonlantirish, gender tengligi masalalarini tavsiflovchi statistik ma`lumotlarga bo`lgan ichki ehtiyojning o`sishiga yordam bermoqda, hamda ushbu ma`lumotlardan foydalanuvchilarning doirasi kengaymoqda.

2002 yilda nashrdan chiqarilgan (BMTTD va OTBning ko`magida) "O`zbekistonda ayollar va erkaklar" risolasi, ilk marotaba boshqaruv, siyosiy hayot va tadbirkorlik sohasi bo`yicha keltirilgan ma`lumotlarni o`z ichiga olgan 9 ta

[1] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.2018.

strategik yo`nalishlar bo`yicha indikatorlarni bir joyga jamlagan birinchi nashr bo`ldi. O`sha davrdan boshlab, xalqaro tashkilotlar yordamida 2002, 2007, 2010 va 2012 yillarda shu kabi bir qator risolalar chop etildi. Ularning barchasida ma`muriy manbalar va kuzatuvlar (o`rganishlar) natijalarida mavjud bo`lgan muhim gender indikatorlari aks ettirilgan.

O`zbekistonda gender statistikasi bo`yicha ma`lumotlarni yig`ish bir qator manbalarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Jinsiy guruhlar, aholini ro`yxatga olish va statistik kuzatuvlar bo`yicha mavjud ma`muriy hisobotlarga qo`shimcha ravishda, ko`p ko`rsatkichli klaster kuzatuvi (MICS), hamda DHS, LSS va uy xo`jaliklari kuzatuvi asosida shakllangan ma`lumotlar mavjud. Ushbu sayt gender statistikasi ma`lumotlarini takomillashtirish, doimiy ravishda va o`z vaqtida jins guruhlari bo`yicha ma`lumotlarni ommaga yetkazish maqsadida gender statistikasi bo`yicha elektron ma`lumotlar bazasini yaratish yo`lida o`ziga xos birinchi urinish sifatida aks etadi. Xalqaro tashkilotlarning jamiyatda ayollar va erkaklarning holatini taqqoslama tahlil qilishga imkon yaratadigan yangi ko`rsatkichlarni ishlab chiqish, ularni yuritish va tizimlashtirishga yo`naltirilgan tavsiyalari inobatga olingan. Mazkur ishlar jamiyatni demokratlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish bilan shart qilingan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yangi jihatlarini xolisona aks ettirishga yo`naltirilgan, milliy statistika sohalarini rivojlantirishning bir qismi sifatida amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi qonun mamalakatimiz ravnaqi yo’lida sobitqadam bo’lish, aniq natijaga yo’naltirilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqish hamda qonunda belgilangan tamoyillar asosida muhim natijalarga erishishga zamin yaratdi. 32 ta moddadan iborat ushbu qonunda “gender”, “gender statistikasi”, “gender-huquqiy ekspertiza”, “jinsiy kamsitish” tushunchalari va turlari; mazkur yo’nalishda vakolatli orgnlarning vazifalari va funuksiyalari; davlat boshqaruvida ishtirok etishda, ishga qabul qilish yoki yollashda, kreditlar olishda va tadbirkorlik bilan shug’ullanishda gender tenglikni ta’minlash bo’yicha normalar; gender tenglik buzulishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda javobgarlik masalasi aks ettirilgan.

Qonunda erkaklar va ayllar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta’minlashning asosiy prinsplari belgilangan. Qonunda alohida modda bilan jinsi bo’yicha kamsitish hisoblanmaydigan holatlar ham batafsil ochib berilgan.

E’tiborli jihati, qonunda normative-huquqiy jihatlarning va ular loyhalarning gender-huquqiy ekspertizasini o’tkazishga oid alohida norma belgilangan. Bu esa, bugungi kunda qonun hujjatlari va ularning loyhalari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o’tkazib kelinayotgani kabi gender tenglik nuqtayi nazardan ham huquqiy ekspertizadan o’tkazilishiga asos bo’ladi. Biroq hali muammolarni

hammasi hal qilindi degani emas. O’zbekistonda hali ham ayollarning davlat boshqaruvidagi ulishi pastligicha qolmoqda.

Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirining birinchi o‘rinbosari Elmira Bositxonova ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasidagi faoliyat qoniqarsiz ekanligini ta'kidladi. Uning so‘zlariga ko‘ra, hozirgi kunda respublika bo‘yicha rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borayotgan ayollar ulushi 7 foizni ham tashkil etmaydi. “Joylarda xotin-qizlarning yetakchiligini ta'minlashda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo‘limlarining faoliyati qoniqarsiz ahvolda qolmoqda. Hududlarga bu borada me'yoriy hujjatlar ijro uchun yuborilganligiga qaramay, faol, ibratli xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini ta'minlash borasida hech qanday ish olib borilmayotgani joylarga borganda ma'lum bo‘lmoqda”, dedi Bositxonova “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan yangi tizimni joriy etish masalasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida. Ma'lum qilinishicha, respublikada sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va sport sohasida 82,6 foiz, fan, ta'lim, san'at va madaniyat sohalarida 72,1 foiz, qishloq xo‘jaligi sohasida 45,5 foiz, sanoatda 38,5 foiz, qurilish sohasida 8 foiz xotin-qizlar faoliyat ko‘rsatmoqda.Vakillik organlari va parlament deputatlari orasidagi xotin-qizlar ulushi 32 foizni tashkil etadi. Turli darajadagi davlat mukofoti sovrindorlari bo‘lgan xotin-qizlarning bugungi soni 2 ming 283 nafar. “Ayollarning jamiyatdagi faolligini oshirish maqsadida vazirlikdagi Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini oshirish boshqarmasi tomonidan turli tashkilotlar, siyosiy partiyalar bilan hamkorlik o‘rnatish, ijtimoiy faol ayollarni o‘qitish, malakasini oshirish, turli rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish borasida mas'uliyatni oshirish va hududlarga amaliy yordam ko‘rsatish lozim”, deya ta'kidladi vazirning birinchi o‘rinbosari. Shuni aytishimiz mumkinki, gender tingligi masalsida bugungi dunyoqarash chet el davlarlari qonunchiligida belgilab qo’yilgan qonunlardan tubdan qolishmaydi. Biroq ikki yerda bir xil daraxt usmagani kabi bizning davlatchiligimizda gender tengligi masalasi Sharqona urf-odat va islomiy shariy qoidalaridan yirqlashmagan tarizda bo’lishi tarafdoriman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.O’zbekiston Resspublikasi Konstitutsiyasi.2018.
2.Kun.uz.Internet.
3.Sayyora Baratova, // O’zbekistonda ayollar hech qachon kamsitilmaydi//O’ZA.
4.Furqat Tojiyev, Shahnoza Soatova. Gender tenglik: ehtiyojmi yoki hashamat? https://xabar.uz/wjpb.